

GIPOTERIOZ HOLATIDA AYOLLAR BACHADONINING ANATOMIK O‘ZGARISHLARI

Saidmurodova Gulhayo Ilhom qizi, Nazarov Botir Saidmurod o‘g‘li,

Baxshullayeva Farog‘at Namozovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 2-kurs magistratura talabalari:

saidmurodovagulhayo@gmail.com

+998900919593

Annotatsiya: Ushbu maqolada gipoterozning kelib chiqishi, uning salbiy oqibatlar va jiddiy asoratlari, bugungi kunda kasallikning tarqalishi, gipoterozda ayollar bachadonining anatomik o‘zgarishlari.

Kalit so‘zlar: gipoteroz, endokrin kasalliklar, kasallikning tarqalishi, yod tanqisligi, tiroksin, TTG, hayz siklining buzilishi, bachanning anatomik o‘lchamlari bepustlik.

Mavzuning dolzarbligi. Morfologik va ultratovush tekshirishlar natijalariga ko‘ra bachadon shakli va o‘lchamlarining yoshga bog‘liq va individual o‘zgaruvchanligini o‘rganish.

Kirish. Adabiyotlardagi ma‘lumotlarga ko‘ra, faol reproduktiv yoshdagi ayollarning 40-60 % ginekologik kasalliklarga chalingan bo‘lib, ular homiladorlik va tug‘ruqning asoratlanishiga olib keluvchi xavf omillariga ega. Ayrim xududlarda qiz bolalarning deyarli 1/3 holatlarda jinsiy a‘zolar funksiyasining, ya‘ni hayz siklining buzilishi, jinsiy rivojlanishning nuqsonlari kuzatiladi. Yosh o‘tgan sayin homiladorlik va tug‘ruq asoratlari gipoteroz sababli yallig‘lanish, o‘sma oldi va o‘sma kasalliklarining ortishiga olib keladi. Ayollar jinsiy a‘zolarini tekshirishda eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri ultratovush tekshiruv usuli bo‘lib u bachadon va uning konfiguratsiyasini, shakli, o‘lchamlarining xususiyatlari, shuningdek, rivojlanish nuqsonlari va kasalliklarini aniqlash imkonini beradi. [1,2]

Ayollar chanoq‘i turli shakllarga ega bo‘lib, birinchi va ikkinchi yetuk yosh davrida gipoteroz bilan kasallangan ayollarda bachadon o‘lchamlarining o‘ziga xos o‘zgarishlari aniqlandi. Gipoteroz bilan kasallangan ayollarda chanoqning normal va tor shakllarida o‘rtacha $58,0 \pm 1,2$ mm ni tashkil qiladi, chanoqning normal shaklida bachadon tanasining kengligi tor shaklidan ko‘ra 0,7 mm ga katta va o‘rtacha $57,1 \pm 0,6$.mm. Normal chanoq shaklida bachadon tanasining qalinligi o‘rtacha $49,9 \pm 0,5$ mm ni tashkil etdi va ushbu o‘lchamning chanoqning tor shaklidagidan 0,6 mm ga ko‘p. Chanoqning normal shaklida bachadon bo‘yinchasining uzunligi tor shaklidagidan ko‘ra 0,5 mm ga katta va o‘rtacha 3,8 mm ni tashkil qiladi [2].

Gipoterioz holatida ayollarda chanoqning normal shaklida bachadon o‘chamlari (mm)

| O‘lchamlari | | Variatsion-statistik ko‘rsatkich | | |
|-----------------|----------------|--|-------------------------|------|
| | | Min-Max | X±m | Cv% |
| Bachadon tanasi | Uzunlik | 56,0-60,0 | 58,0±1,2 | 12,8 |
| | Kenglik | 50,0-58,0 | 57,1±0,6 | 13,5 |
| | Qalinlik | 50,0-58,0 | 49,9±0,5 | 14,5 |
| | Bachadon hajmi | 155,2 ³ ±165,3 ³ | 161,2 ³ ±1,1 | 23,4 |





Gipoterioz holatida ayollarda tor chanoq shaklida bachadon o‘chamlari (mm)

| O‘lchamlari | | Variatsion-statistik ko‘rsatkich | | |
|-----------------|----------------|--|-------------------------|------|
| | | Min-Max | X±m | Cv% |
| Bachadon tanasi | Uzunlik | 55,0-59,0 | 57,0±0,5 | 12,1 |
| | Kenglik | 54,6-57,3 | 56,5±0,6 | 13,4 |
| | Qalinlik | 50,0-58,0 | 49,9±0,5 | 14,3 |
| | Bachadon hajmi | 155,2 ³ ±165,3 ³ | 161,2 ³ ±1,1 | 23,2 |

Qalinlik-uzunlik indeksini hisobga olib, mezometrik bachadonlar chanoqning tor shaklida (42,2%), normal chanoq shakliga (38,2%) qaraganda 4 % ko‘p uchraydi. Chanoqning tor shaklida leptometrik bachadonlar 2 marta ko‘p uchraydi (7,9%); paximetrik bachadonlar chanoqning turli shakllarida bir xil chastotada uchraydi (5,1%-5,2 %). Tadqiqodimizni 20-50 yoshli gipoterioz bilan kasallangan ayollarda bachadondagi individual o‘zgarishlarga bag‘ishladik. Adabiyotlarda mavjud bo‘lgan taxlillarda ayollar reproduktiv a‘zolarida ultratovushli organometriya bo‘yicha berilgan ma’lumotlar, odatda boshqa patologiyalar mavjudligini tekshirish bilan birga olingan, shuning uchun ular natijalarning statistik ishonchliligi uchun kuzatuvlarning yetarli soniga asoslanmagan, o‘rta xarakterga ega, variatsiya-statistika yo‘li bilan qayta ishlanmagan va individual-tipologik va yosh bo‘yicha o‘zgarishlar hisobga olinmasdan o‘tkazilmaganligi sababli ushbu tadqiqotni o‘tkazishni lozim topdik [3].

Tadqiqotlarimizning natijalari gipoterioz holatida ayollarda bachadonning konfiguratsiyasi tanasi oldinga egilganlanligi (anteversio), bachadon kichik chanoq bo‘shlig‘ida joylashishi, tana va bo‘yicha o‘rtasidagi burchak oldinga ochilishini ko‘rsatdi (anteflexio). 20-50 yoshdagi ayollarda 22,7% ayollarda bachadon tanasi va bo‘yni o‘rtasidagi burchak quyidagi holatda bo‘ldi: bachadon tanasining o‘ngga siljishi bilan anteversio holati 5 nafar ayolda (5,1%) kuzatildi; bachadonning ortga reflexio egilishi shakllanishi bilan bachadonning orqaga ketishi retroversio 13 nafar ayolda aniqlandi (11,2%) [4,5].

20 yoshdan 50 yoshgacha gipoterioz holatida ayollarda bachadon o‘chamlari (mm)

| | Bachadon o‘lchami | Variatsion-statistik ko‘rsatkich | | |
|---|--------------------------|----------------------------------|----------|------|
| | | Min-Max | X±m | Cv% |
| 1 | Uzunligi | 44,0-70,0 | 61,1±0,5 | 12,6 |
| 2 | Qalinligi | 42,0-59,0 | 46,5±0,5 | 13,0 |
| 3 | Kengligi | 32,0-48,0 | 41,5±0,4 | 11,3 |
| 4 | Bachadon bo‘yni uzunligi | 25,0-39,0 | 31,1±0,7 | 7,9 |

Adabiyotlar

1. Гипотериоз. Руководства для врачей общей практики. Под редакцией Денисова И.Н., 2015.-30 с.
2. Дедов И.И., Мельниченко Г.А., Фадеев В.В., Эндокринология. ГЭОТАР- Медиа, 2009.-422 с.
3. Garber J. R, Cobin R.N, Gharib H, et al: Clinical practice guidelines for hypothyroidism in adults: cosponsored by the American Association of Clinical Endocrinologists and the American Thyroid Association. *Thyroid* 2012; 22:1200-1235
4. Guideline: Management of Subclinical Hypothyroidism. *Eur. Thyroid J.* 2013; 2: 215-228 DOI: 10. 1159/000356507.
5. Ismoilov S.I. Endokrinologiyadan tanlangan ma`ruzalar. –Toshkent, 2005.- B. 105-183.
6. Salomatlik kutubxonasi. // Ilmiy jurnal.-Toshkent, 2015. -32 b.
<https://uz.hypothyroidism.com/>
7. <https://journals.sagepub.com/>
8. <https://www.vsmu.by/>
9. <https://rae-org.ru/>
10. <https://www.hindawi.com/journals/ijvm/2012/918267/>
11. <https://physoc.onlinelibrary.wiley.com/>